



MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISH NUQSONI BO'LGAN BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH DARAJASINI TEKSHIRISH METODIKASI

Begimov Mavlon

*KIUT Maxsus pedagogika "Logopediya" yo'nalishi Magistratura 1-
bosqich talabasi*

Annotatsiya: Maktabgacha yosh davri bola nutqiy faoliyatining shakllanishi va rivojlanishida yetakchi bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda nutqning shakllanish jarayoni murakkab psixofiziologik mexanizmlar asosida kechib, bu jarayon eshitish analizatori faoliyatidagi buzilishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Eshitishdagi nuqsonlar natijasida bola nutqiy signallarni to'liq qabul qila olmaydi, bu esa uning fonetik-fonematik, leksik va grammatik tizimlarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining rivojlanish darajasini aniqlash metodikasining nazariy va amaliy jihatlari tahlil etiladi. Xususan, bolalarning nutqiy rivojlanish xususiyatlari, ularning eshitish qobiliyati darajasi bilan o'zaro bog'liqligi hamda nutqni baholashning mezon va ko'rsatkichlari ilmiy asosda yoritiladi. Nutq rivojlanishini tekshirish jarayonida qo'llaniladigan diagnostik metodlar kompleks yondashuv asosida ko'rib chiqilib, ularning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishidagi cheklanishlarni erta aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan korreksion-pedagogik ishlarni samarali tashkil etish bugungi kunda surdopedagogika sohasining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, nutq rivojlanish darajasini aniqlashga qaratilgan ilmiy asoslangan metodikalarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi — maktabgacha yoshdagi eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining rivojlanish darajasini aniqlash metodikasini ilmiy asosda tahlil qilish hamda uning asosiy mezonlari va diagnostik ko'rsatkichlarini aniqlashdan iborat.



Kalit so‘zlar: Eshitish nuqsoni, maktabgacha yosh, nutq rivojlanishi, diagnostika, surdopedagogika, fonetik-fonematik tizim, leksik-grammatik rivojlanish, nutqiy faoliyat.

***Аннотация:** Дошкольный возраст является ведущим этапом в формировании и развитии речевой деятельности ребёнка. Особенно у детей с нарушением слуха процесс формирования речи протекает на основе сложных психофизиологических механизмов и тесно связан с нарушениями функционирования слухового анализатора. Вследствие нарушений слуха ребёнок не способен полноценно воспринимать речевые сигналы, что оказывает негативное влияние на развитие фонетико-фонематической, лексической и грамматической систем речи. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты методики определения уровня развития речи у детей дошкольного возраста с нарушением слуха. В частности, научно обоснованно рассматриваются особенности речевого развития детей, их взаимосвязь с уровнем слухового восприятия, а также критерии и показатели оценки речи. Диагностические методы, применяемые в процессе исследования речевого развития, рассматриваются на основе комплексного подхода, а также анализируется их эффективность. Актуальность исследования обусловлена тем, что раннее выявление нарушений речевого развития у детей с нарушением слуха и эффективная организация коррекционно-педагогической работы, направленной на их устранение, являются одними из приоритетных задач современной сурдopedagogiki. В связи с этим особую значимость приобретает совершенствование научно обоснованных методик диагностики уровня речевого развития. Целью данной статьи является научный анализ методики определения уровня развития речи у детей дошкольного возраста с нарушением слуха, а также выявление её основных критериев и диагностических показателей.*



Ключевые слова: нарушение слуха, дошкольный возраст, развитие речи, диагностика, сурдопедагогика, фонетико-фонематическая система, лексико-грамматическое развитие, речевая деятельность.

Abstract: Preschool age is a crucial stage in the formation and development of a child's speech activity. Particularly in children with hearing impairments, the process of speech development occurs on the basis of complex psychophysiological mechanisms and is closely related to dysfunctions of the auditory analyzer. Due to hearing impairments, a child is unable to fully perceive speech signals, which negatively affects the development of phonetic-phonemic, lexical, and grammatical systems of speech. This article analyzes the theoretical and practical aspects of the methodology for assessing the level of speech development in preschool children with hearing impairments. In particular, the features of children's speech development, their relationship with the level of auditory perception, as well as the criteria and indicators for speech assessment are scientifically substantiated. The diagnostic methods used in the process of examining speech development are considered within a comprehensive approach, and their effectiveness is analyzed. The relevance of the study lies in the fact that early identification of speech development disorders in children with hearing impairments and the effective organization of corrective and pedagogical interventions aimed at eliminating them are among the priority tasks of modern surdopedagogy. Therefore, improving scientifically grounded methodologies for assessing the level of speech development is of great importance. The purpose of this article is to provide a scientific analysis of the methodology for determining the level of speech development in preschool children with hearing impairments, as well as to identify its main criteria and diagnostic indicators.

Keywords: hearing impairment, preschool age, speech development, diagnostics, surdopedagogy, phonetic-phonemic system, lexical and grammatical development, speech activity.

Asosiy qism: Maktabgacha yoshdagi eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanish darajasini aniqlash murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u



kompleks diagnostik yondashuvni talab etadi. Mazkur jarayon bolalarning individual psixofiziologik xususiyatlarini, eshitish qobiliyati darajasini hamda nutqiy faoliyatining shakllanish bosqichlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Nutq rivojlanish darajasini tekshirish metodikasi bir necha asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: Fonetik-fonematik rivojlanishni baholash. Ushbu yo'nalishda bolalarning tovushlarni eshitish, farqlash va to'g'ri talaffuz qilish qobiliyati aniqlanadi. Eshitish nuqsoniga ega bolalarda fonematik eshitishning yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatiladi. Shu sababli quyidagi topshiriqlar qo'llaniladi: tovushlarni farqlash (masalan, yaqin fonemalarni ajratish) tovushlarni takrorlash so'z tarkibidagi tovushlarni aniqlash. Mazkur bosqich nutqning fonetik asoslarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Leksik rivojlanishni aniqlash Lug'at boyligini tekshirish bolalarning so'z zaxirasi va uning faol yoki passiv ekanligini aniqlashga qaratiladi. Diagnostika jarayonida: predmetlarni nomlash rasmlar asosida so'zlarni aytish umumlashtiruvchi tushunchalarni qo'llash sinonim va antonimlarni aniqlash kabi topshiriqlar beriladi. Eshitish nuqsoniga ega bolalarda lug'at boyligi odatda cheklangan bo'ladi va bu ularning muloqot jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Grammatik tizimni baholash. Ushbu yo'nalishda bolalarning gap tuzish qobiliyati, so'zlarni grammatik jihatdan to'g'ri qo'llashi va nutqning strukturaviy shakllanishi o'rganiladi. Bunda: gap tuzish so'z shakllarini to'g'ri qo'llash kelishik va zamon kategoriyalaridan foydalanish darajasi tekshiriladi. Grammatik tizimning rivojlanmaganligi nutqning mazmuniy aniqligini pasaytiradi. Bog'lanishli nutqni tekshirish. Bog'lanishli nutq bolaning fikrini izchil va mantiqiy ifodalash qobiliyatini aks ettiradi. Ushbu bosqichda: rasmlar asosida hikoya tuzish matnni qayta hikoya qilish. voqealarni ketma-ketlikda bayon etish kabi vazifalar bajariladi. Eshitish nuqsoniga ega bolalarda bog'lanishli nutqning rivojlanishi sekinroq kechadi va ko'pincha mantiqiy bog'liqlik buziladi. Eshitish qobiliyatini va nutqni qabul qilishni baholash. Nutq rivojlanishini to'liq baholash uchun eshitish qobiliyati darajasi ham alohida tekshiriladi. Bunda: nutqni eshitib tushunish. buyruqlarni bajarish. nutqiy ko'rsatmalarni idrok etish darajasi aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlar bolaning nutqni qabul qilish imkoniyatlarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Metodikaning asosiy



bosqichlari Nutq rivojlanish darajasini aniqlash metodikasi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: Tayyorlov bosqichi – bolaning umumiy rivojlanish darajasi, tibbiy-pedagogik hujjatlari va eshitish holati o‘rganiladi. Diagnostik bosqich – yuqoridagi yo‘nalishlar asosida maxsus topshiriqlar orqali nutq rivojlanish darajasi aniqlanadi. Tahlil bosqichi – olingan natijalar tizimlashtiriladi va baholanadi. Xulosa va tavsiyalar bosqichi – individual rivojlantiruvchi va korreksion ishlar uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi. Baholash mezonlari Nutq rivojlanish darajasi quyidagi mezonlar asosida baholanadi: yuqori daraja — nutq tizimlari deyarli to‘liq shakllangan; o‘rta daraja — ayrim nutq komponentlarida kamchiliklar mavjud; past daraja — nutq rivojlanishida sezilarli orqada qolish kuzatiladi. Mazkur metodika bolalarning nutqiy rivojlanishidagi kamchiliklarni aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish va samarali korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etish imkonini beradi. Kompleks yondashuv asosida olib borilgan diagnostika natijalari individual ta‘lim yo‘nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq rivojlanishini aniqlashda qo‘llaniladigan metod va vositalar. Maktabgacha yoshdagi eshitish nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqini tekshirishda an‘anaviy va zamonaviy diagnostik metodlardan kompleks foydalanish talab etiladi. Diagnostika jarayonida kuzatish, suhbat, maxsus topshiriqlar, test metodlari hamda vizual vositalardan keng foydalaniladi. Kuzatish metodi orqali bolaning tabiiy sharoitdagi nutqiy faoliyati, muloqotga kirishish darajasi, nutqiy tashabbuskorligi aniqlanadi. Bu usul bolaning sun‘iy emas, balki real nutqiy imkoniyatlarini baholashga yordam beradi. Suhbat metodi esa bolaning nutqiy faolligini oshirish va uning lug‘at boyligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Suhbat jarayonida bola bilan sodda savol-javoblar olib borilib, uning fikrni ifodalash qobiliyati o‘rganiladi. Maxsus diagnostik topshiriqlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: rasmlar asosida hikoya tuzish predmetlarni nomlash eshitilgan so‘zlarni takrorlash tovushlarni farqlashga oid mashqlar. Vizual vositalar (rasmlar, kartochkalar, predmetlar) esa eshitish nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutqni rivojlantirish va tekshirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Chunki bu bolalarda ko‘rish orqali qabul qilish ustunroq rivojlangan bo‘ladi. Nutq rivojlanish darajasini aniqlashda uchraydigan muammolar. Eshitish nuqsoni bo‘lgan bolalar



nutqini tekshirish jarayonida bir qator muammolar kuzatiladi. Eng avvalo, bu bolalarda nutqiy tajribaning yetarli emasligi, eshitish orqali axborotni qabul qilishdagi cheklanishlar bilan bog'liqdir. Bundan tashqari: fonematik eshitishning rivojlanmaganligi lug'at boyligining cheklanganligi grammatik xatolarning ko'pligi nutqning sust rivojlanishi kabi holatlar aniqlanadi. Shuningdek, ayrim hollarda bola nutqiy topshiriqlarni tushunmasligi ham diagnostika natijalariga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli topshiriqlar bolaning individual xususiyatlariga mos ravishda tanlanishi lozim. Korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etish asoslari Nutq rivojlanish darajasini aniqlash natijalari asosida individual korreksion-pedagogik ishlar rejalashtiriladi. Ushbu ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi: Fonetik-fonematik rivojlanishni shakllantirish – tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish, fonemalarni farqlash mashqlari. Lug'at boyligini kengaytirish – yangi so'zlarni o'rgatish, predmet va hodisalarni nomlashni rivojlantirish. Grammatik nutqni rivojlantirish gap tuzish, so'zlarni to'g'ri shaklda qo'llashni o'rgatish. Bog'lanishli nutqni shakllantirish hikoya tuzish, matnni qayta aytib berish, izchil fikrlashni rivojlantirish. Eshitish va nutqni idrok etishni rivojlantirish eshitish qoldiqlaridan foydalanish, nutqni tushunishga o'rgatish. Ilmiy yondashuv va nazariy asoslar. Mazkur metodika bir qator ilmiy nazariyalarga asoslanadi. Jumladan, L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bola nutqi ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi. Shuningdek, A.R. Luriya nutqning psixofiziologik mexanizmlarini asoslab bergan bo'lib, nutq faoliyati bosh miya faoliyati bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Surdopedagogika sohasidagi tadqiqotlar esa eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishi maxsus pedagogik ta'sir orqali shakllanishini ko'rsatadi. Bu esa diagnostika va korreksiya jarayonining o'zaro bog'liqligini anglatadi. Amaliy tavsiyalar. Tadqiqot asosida quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin: diagnostika jarayonini erta yoshdan boshlash individual yondashuvni qo'llash vizual va didaktik vositalardan keng foydalanish ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish muntazam ravishda nutqiy mashg'ulotlar tashkil etish. Nutq rivojlanishini aniqlashda qo'llaniladigan metod va vositalar. Maktabgacha yoshdagi eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini tekshirishda an'anaviy va zamonaviy diagnostik metodlardan



kompleks foydalanish talab etiladi. Diagnostika jarayonida kuzatish, suhbat, maxsus topshiriqlar, test metodlari hamda vizual vositalardan keng foydalaniladi. Kuzatish metodi orqali bolaning tabiiy sharoitdagi nutqiy faoliyati, muloqotga kirishish darajasi, nutqiy tashabbuskorligi aniqlanadi. Bu usul bolaning sun'iy emas, balki real nutqiy imkoniyatlarini baholashga yordam beradi. Suhbat metodi esa bolaning nutqiy faolligini oshirish va uning lug'at boyligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Suhbat jarayonida bola bilan sodda savol-javoblar olib borilib, uning fikrni ifodalash qobiliyati o'rganiladi. Maxsus diagnostik topshiriqlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: rasmlar asosida hikoya tuzish predmetlarni nomlash eshitilgan so'zlarni takrorlash tovushlarni farqlashga oid mashqlar. Vizual vositalar (rasmlar, kartochkalar, predmetlar) esa eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqni rivojlantirish va tekshirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Chunki bu bolalarda ko'rish orqali qabul qilish ustunroq rivojlangan bo'ladi. Nutq rivojlanish darajasini aniqlashda uchraydigan muammolar. Eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini tekshirish jarayonida bir qator muammolar kuzatiladi. Eng avvalo, bu bolalarda nutqiy tajribaning yetarli emasligi, eshitish orqali axborotni qabul qilishdagi cheklanishlar bilan bog'liqdir. Bundan tashqari: fonematik eshitishning rivojlanmaganligi lug'at boyligining cheklanganligi grammatik xatolarning ko'pligi nutqning sust rivojlanishi kabi holatlar aniqlanadi. Shuningdek, ayrim hollarda bola nutqiy topshiriqlarni tushunmasligi ham diagnostika natijalariga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli topshiriqlar bolaning individual xususiyatlariga mos ravishda tanlanishi lozim. Korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etish asoslari. Nutq rivojlanish darajasini aniqlash natijalari asosida individual korreksion-pedagogik ishlar rejalashtiriladi. Ushbu ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi: Fonetik-fonematik rivojlanishni shakllantirish tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish, fonemalarni farqlash mashqlari. Lug'at boyligini kengaytirish yangi so'zlarni o'rgatish, predmet va hodisalarni nomlashni rivojlantirish. Grammatik nutqni rivojlantirish gap tuzish, so'zlarni to'g'ri shaklda qo'llashni o'rgatish. Bog'lanishli nutqni shakllantirish hikoya tuzish, matnni qayta aytib berish, izchil fikrlashni rivojlantirish. Eshitish va nutqni idrok etishni rivojlantirish eshitish qoldiqlaridan foydalanish, nutqni



tushunishga o'rgatish. Ilmiy yondashuv va nazariy asoslar. Mazkur metodika bir qator ilmiy nazariyalarga asoslanadi. Jumladan, L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bola nutqi ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi. Shuningdek, A.R. Luriya nutqning psixofiziologik mexanizmlarini asoslab bergan bo'lib, nutq faoliyati bosh miya faoliyati bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Surdopedagogika sohasidagi tadqiqotlar esa eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishi maxsus pedagogik ta'sir orqali shakllanishini ko'rsatadi. Bu esa diagnostika va korreksiya jarayonining o'zaro bog'liqligini anglatadi. Amaliy tavsiyalar Tadqiqot asosida quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin diagnostika jarayonini erta yoshdan boshlash individual yondashuvni qo'llash vizual va didaktik vositalardan keng foydalanish ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish muntazam ravishda nutqiy mashg'ulotlar tashkil etish.

Xulosa

Maktabgacha yoshdagi eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanish darajasini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan murakkab jarayon hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, eshitish analizatoridagi buzilishlar bolalarning nutqiy faoliyatining barcha tarkibiy qismlariga — fonetik-fonematik, leksik va grammatik tizimlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda bog'lanishli nutqning shakllanishini sekinlashtiradi. Maqolada tahlil qilingan metodika asosida nutq rivojlanish darajasini kompleks yondashuv orqali aniqlash imkoniyati mavjudligi asoslab berildi. Xususan, nutqning alohida komponentlarini tizimli ravishda tekshirish, diagnostik topshiriqlarni bosqichma-bosqich qo'llash va natijalarni ilmiy mezonlar asosida baholash bolalarning nutqiy rivojlanish darajasini aniq belgilashga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari nutq rivojlanishidagi kamchiliklarni erta aniqlash va ular asosida individual korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa bolalarning ijtimoiy moslashuvi, muloqotga kirishishi va keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining rivojlanish darajasini aniqlashga qaratilgan ilmiy asoslangan metodikalarni takomillashtirish hamda ularni amaliyotga keng joriy etish



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Выготский Л.С. Мышление и речь. — М.: Педагогика, 1982.
- Леонтьев А.А. Психология общения. — М.: Смысл, 1999.
- Лурия А.Р. Язык и сознание. — М.: Издательство МГУ, 1979.
- Рау Ф.Ф., Слезина Л.В. Методика обучения глухих детей речи. — М.: Просвещение, 1981.
- Боскис Р.М. Глухие и слабослышащие дети. — М.: Просвещение, 1963.
- Корсунская Б.Д. Воспитание и обучение детей с нарушениями слуха. — М.: Просвещение, 1985.
- Жинкин Н.И. Механизмы речи. — М.: Наука, 1958.
- Шиф Ж.И. Развитие речи у глухих детей. — М.: Просвещение, 1968.
- Сурдопедагогика: учебник для вузов / Под ред. Л.В. Нейман. — М.: Владос, 2001.
- Назарова Н.М. Специальная педагогика. — М.: Академия, 2000.
- Ўзбекистон Республикаси “Та’лим то’ғ’risida”gi Qonuni. — Т.: 2020.
- Ўзбекистон Республикаси Президентининг таълим соҳасига оид қарорлари ва фармонлари. — Т.: 2019–2023.
- Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. — Т.: 2021.
- Махмудова Д.М. Сурдопедагогика асослари. — Т.: Фан, 2018.
- Abdurahmonov G., Sodiqov Q. Nutq madaniyati va tilshunoslik asoslari. — Т.: O‘qituvchi, 2010.
- <https://www.researchgate.net/publication/366105391>
- <https://scientifictrends.org/index.php/ijst/article/download/686/638/794>
- <https://cyberleninka.ru/article/n/formation-of-communicative-competence-preschool-children-with-hearing-loss-problem-statement>
- <https://bakhtiniada.ru/1991-9468/article/view/293501>
- <https://www.atlantis-press.com/article/125979733.pdf>
- <https://kiut.uz/en/programs/bachelors-programs/faculty-directions/Special-Pedagogy/>